



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 05 | pp. 219-224 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQADA XALQARO TURIZMNING TASHKILIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI



Salayeva Dilrabo Abdullayevna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti,
e-mail. dilrabo_s@urdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada xalqaro turizmni tashkil etish, uning tashkiliy-iqtisodiy ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va unga oid ko'rsatkichlarning tahliliga oid masalalar muhokama qilinadi hamda ushbu tahlilni amalga oshirish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы организации международного туризма в регионе, его организационно-экономическое значение, особенности, имеющиеся возможности и анализ связанных с этим показателей, а также приводятся выводы по результатам данного анализа.

Abstract. This article discusses the issues related to the organization of international tourism in the region, its organizational and economic significance, specific features, existing opportunities and the analysis of related indicators, and presents conclusions on the implementation of this analysis.

Kalit so'zlar. Mintaqa, turizm, xalqaro turizm, ko'rsatkich, tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkich.

Ключевые слова. Регион, туризм, международный туризм, показатель, организационно-экономический показатель.

Key words. Region, tourism, international tourism, indicator, organizational and economic indicator.

Kirish. Bugungi kunda jahonda mintaqaviy turizmni innovatsion rivojlantirish, turistlarga xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. U orqali turizm sohasi o'zining mavjud imkoniyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Bu borada xalqaro turizmning huquqiy asoslari keng qamrovli bo'lib, turli xalqaro va milliy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Ular turizm sohasidagi davlatlararo munosabatlarni tartibga solish, turistlarning huquqlarini himoya qilish, turizm faoliyatini barqaror rivojlantirishga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizm sohasini tartibga soluvchi hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni [1] hisoblanadi. Ushbu hujjat turizm sohasidagi asosiy tushunchalar, tamoyillar, davlat siyosati va turizm faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi. Bevosita ushbu chora-tadbirlar xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotlarda xalqaro turizm taraqqiyoti tahlilini amalga oshirishga e'tibor qaratiladi. Olib borilgan natijalarga asosan, tahlil qilinayotgan mamlakatlar guruhlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra natijalar bir-biridan farq qilishini hisobga olib, turizmdan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash vositasi sifatida foydalanayotgan har bir davlatning o'ziga xosligini hisobga oladigan iqtisodiy siyosatni qabul qilish zarurligini ta'kidlaydi [2]. Unga asosan, turizm tufayli xalqaro turizmni taraqqiy qildirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, turizm xizmatlari bozorida mintaqaviy turizmni rivojlantirish yo'nalişlarini belgilash, uni milliy iqtisodiyotda rivojlantirishning klaster modelini ishlab chiqish, hududlarning investitsiya turizmi jozibadorligini oshirish, zamonaviy turizm infratuzilmalarini shakllantirish, hududlarda turizm xizmatlari samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish, turistik xizmatlar eksportiga ta'sirini kamaytirish yo'llarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda [3]. Mazkur sharoitda mintaqaviy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim masalalar qatoriga kiradi. Bu holatda turizmning tashkiliy-iqtisodiy rivojlanishi jahon iqtisodiy bozoridagi ta'sirchan ma'lumotlar bilan tavsiflanadi. Ular jahon mamlakatlarida turizm tez rivojlanayotgan soha ekanligini va uning jahon iqtisodiyotidagi roli muttasil ravishda oshib borayotganini ko'rsatadi [4].

Xalqaro turizm ko'rsatkichlari turli yondashuvlar asosida takomillashib boradi. Mikroiqtisodiy yondashuv turizm bozoridagi xo'jalik subyekti, ya'ni sayyoqlik agentligi faoliyatini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Buni iqtisodiy samara, samaradorlik, foya, iqtisodiy samaradorlik, aktivlar rentabelligi, kapital sig'imi, aylanma mablag'larning aylanmasi, mehnat unumdarligi va boshqalar kabi aniq moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tahlil qilish talab etiladi [5]. Ushbu ko'rsatkichlar xalqaro turizm ko'rsatkichlari sifatida turli ma'lumotlarga asoslanadi. Xalqaro turizm ko'rsatkichlari to'lov balansi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va milliy hisoblarni tuzish uchun ma'lumotlar manbalari hisoblanadi [6].

Mazkur tadqiqotlar xalqaro turizmning tahlilini amalga oshirish orqali tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tadqiq qilish belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Darhaqiqat, mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish keng qamrovli masala bo'lib hisoblanadi. Chunki, xalqaro turizm bir davlat fuqarosining boshqa davlatga dam olish, davolanish, ishbilarmonlik yoki boshqa maqsadlarda sayohat qilishidir. Shunga asosan, turizm mintaqaga iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, yangi ish o'rinnari yaratadi, infratuzilmani rivojlantiradi, valyuta tushumini oshiradi va mahalliy madaniyatni targ'ib qiladi. Turizm faoliyatini davlat organlari, turistik tashkilotlar, mehmonxonalar, sayyoqlik agentliklari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar tashkil etadi.

Mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlari asosiy ko'rsatkichlar sifatida uning quyidagi ko'rsatkichlarining tahlili amalga oshirililadi:

- sayyoqlar soni: Mintaqaga kelgan xalqaro sayyoqlar soni (dinamikasi, o'sish sur'atlari va kelish maqsadlari).

- turistik daromad: Turizmdan olingan daromad hajmi (valyuta tushumi va mahalliy budjetga tushumlar).

- mehmonxona fondi: Mehmonxonalar soni, joylashuv o'rirlari va to'ldirilish darajasi.

- transport infratuzilmasi: Aeroportlar, temir yo'llar, avtomobil yo'llari holati va ularning sayyohlik oqimiga ta'siri.

- turistik xizmatlar narxi: Mehmonxona xizmatlari, transport, ovqatlanish va boshqa xizmatlar narxlari.

- turistik infratuzilma: Dam olish maskanlari, ko'ngilochar obyektlar, madaniy meros obyektlari soni va holati.

- investitsiyalar: Turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi va yo'nalishlari.

- ish bilan ta'minlanganlik: Turizm sohasida ish bilan ta'minlangan aholi soni.

Shular bilan birgalikda, xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlari ushbu sohaning faoliyati va rivojlanishini baholash uchun ishlatiladigan turli xil o'lchovlar bilan belgilanadi. Ushbu ko'rsatkichlar turizmning iqtisodiy ta'sirini, tashkiliy tuzilmasi va rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga imkon beradi. Shularga asosan, biz mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlarga ajratishni joiz topdik:

1) Iqtisodiy ko'rsatkichlar:

- **xalqaro turistik kelishlar soni:** Mamlakatga yoki mintaqaga kelgan xorijiy sayyoohlar soni. Bu ko'rsatkich turizmning mashhurligi va jozibadorligini aks ettiradi.

- **turizmdan olingan daromad:** Xorijiy sayyoohlar tomonidan to'langan tovarlar va xizmatlar uchun tushgan pul miqdori. Bu mamlakat yoki mintaqaga iqtisodiyotiga turizmning qo'shgan hissasini ko'rsatadi.

- **turizmning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi:** Turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi. Bu turizmning mamlakat iqtisodiyotida qanchalik muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

- **turizm sohasiga kiritilgan investitsiyalar:** Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi mehmonxonalar qurish, turistik obyektlarni ta'mirlash va boshqa loyihalarga kiritilgan sarmoyalar.

- **ish o'rirlari:** Turizm sohasida yaratilgan ish o'rirlari soni (mehmonxonalar, restoranlar, sayyoohlik agentliklari, transport kompaniyalari va boshqalar).

- **xarajatlar turi bo'yicha tahlil:** Sayyoohlar xarajatlarining taqsimlanishi (turar joy, ovqatlanish, transport, ko'ngilochar tadbirlar, xaridlar va boshqalar).

- **bir sayyoohning o'rtacha xarajatlari:** Bir sayyoohning bir safar davomida o'rtacha qancha pul sarflashi.

- **turizmning to'lov balansiga ta'siri:** Turizm xizmatlari eksporti va importi o'rtasidagi farq (turizmning to'lov balansidagi roli).

2) Tashkiliy ko'rsatkichlar:

- **turistik tashkilotlar soni:** Turistik agentliklar, operatorlar, mehmonxonalar, transport kompaniyalari, ekskursiya byurolari va boshqa turistik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar soni.

- **mehmonxona fondi:** Mehmonxonalar soni, joylashuv o'rirlari soni, mehmonxonalarining toifasi (yulduzlar soni).

- **transport infratuzilmasi:** Aeroportlar, temir yo'llar, avtomobil yo'llari, dengiz portlari va ularning turizmga moslashganligi.

- **turistik infratuzilma:** Turistik obyektlar (muzeylar, galereyalar, tarixiy obidalar, tabiat bog'lari, ko'ngilochar maskanlar) soni va holati.

- **turizmni boshqarish tizimi:** Davlat tomonidan turizmni tartibga solish va rivojlantirish siyosati, turistik tashkilotlar roli va funksiyalari.

- **turistik mahsulotlar xilma-xilligi:** Mavjud turistik mahsulotlar turlari (madaniy turizm, ekoturizm, sog'lomlashtirish turizmi, ishbilarmonlik turizmi va boshqalar).

- **marketing va reklama faoliyati:** Turistik mahsulotlarni targ'ib qilish, turistik brendni yaratish va ommalashtirish hamda turistik axborot tarqatish usullari.

- **turizm xavfsizligi:** Sayyoohlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar.

- **turizmni rivojlantirish strategiyasi:** Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli rejalar va dasturlar.

Shularga asoslanib, mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- statistik tahlil: Ko'rsatkichlarni dinamikada o'rganish, o'sish sur'atlarini hisoblash va trendlarni aniqlash.

- komparativ tahlil: Mintaqadagi turli hududlar yoki boshqa mintaqalar bilan solishtirish.

- SWOT tahlil: Mintaqaning turizm sohasidagi kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflarini aniqlash.

- PESTEL tahlil: Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarning turizmga ta'sirini baholash.

- marketing tahlili: Sayyoohlarni, raqobatchilarni va marketing strategiyalarini o'rganish.


Mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining ulushini oshirish borasida 2024–2026-yillarda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari shakllantirilgan. Unga asosan, 2025- va 2026-yillarda mos ravishda xorijiy turistlar soni 1,4 va 1,8 mln. kishini, ichki turistlar soni 4,5 va 5,0 mln. kishini, xizmatlar eksporti hajmi 500,0 va 700,0 mln. AQSh dollarni, faoliyati yo'lga qo'yiladigan joylashtirish vositalari soni 50 va 65 donani, faoliyati yo'lga qo'yiladigan mehmonxonalarda qo'shimcha o'rinalar soni 550 va 900 donani, faoliyati yo'lga qo'yiladigan oilaviy mehmon uylarida qo'shimcha o'rinalar soni 210 va 280 donani, faoliyati yo'lga qo'yiladigan xostellarda qo'shimcha o'rinalar soni 45 va 80 donani hamda faoliyati yo'lga qo'yiladigan turoperator yoki turagentlar soni 25 va 35 donani tashkil qilishi belgilangan.

Biroq, mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda qator muammolar mavjud bo'ladi va uning yechimlari quyidagi yo'naliishlardan iborat bo'ladi:

- turizm sohasidagi asosiy muammolar (infratuzilma yetishmasligi, xizmatlar sifati pastligi, marketingning samarasizligi va ekologik muammolar).

- muammolarni hal qilish yo'llari (infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va ekologik turizmni rivojlantirish).

Mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda mintaqaning xususiyatlari quyidagi yo'naliishlarga asoslanishi lozim (1-rasm):



1-rasm. Mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda mintaqani o'rni

Xulosa. Xalqaro turizm turli sayohat xizmatlari va turistik talabning tovarlarini va chet ellik sayyoohlarning madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat turidir. Xalqaro turizm ko'rsatkichlari xalqaro turizmning holatini, rivojlanishini va iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirini o'lchash uchun ishlatiladigan statistik va sifat ko'rsatkichlaridan tarkib topadi. Mintaqada xalqaro turizmning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish uning natijalariga asoslanadi. Shu orqali mintaqaning turizm sohasidagi raqobatbardoshligi, turizm sohasining rivojlanish istiqbollari va turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga erishiladi. Xalqaro turizm ko'rsatkichlari xalqaro turizmning holatini baholash va kelajakdagi tendentsiyalarini bashorat qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirini o'lchashga yordam beradi. Ushbu ko'rsatkichlar xalqaro turizmning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash, turizm siyosatini ishlab chiqish va turizm sohasidagi biznes strategiyalarini rejalashtirish uchun muhim ma'lumotlar beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, turizm ko'rsatkichlari turli mamlakatlar va tashkilotlar tomonidan turlicha aniqlanishi mumkin. Shuning uchun, ma'lumotlarni taqqoslashda manbalarga e'tibor qaratish va metodologiyalarni hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-soni Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/-4428097>
2. Cárdenas-García, P.J., Brida, J.G. & Segarra, V. Modeling the link between tourism

and economic development: evidence from homogeneous panels of countries. *Humanit Soc Sci Commun*, 11, 308 (2024). <https://doi.org/10.1057/s41599-024-02826-8>

3. Mamatov A.D., Djamatov B.A. Improving the Organizational and Economic Mechanism of Regional Tourism. // International Journal of Business Diplomacy and Economy, Volume2, No5, May, 2023. - 86 b.

4. <https://buklib.net/books/27549/>

5. Воскресенский В.Ю. Международный туризм. Пособие. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. - 255 с.

6. Буценко И.Н., Гафарова К.Э. Статистика международного туризма. // *Economy and Business: Theory and Practice*, vol. 5-1 (111), 2024. - c. 52.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

